

## LUG'AT USTIDA ISHLASH BO'YICHA METODIK TAVSIYALAR

**Nilufar Buranova Sunatillo qizi**

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU 3-kurs talabasi*

*buranovanilufar04@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada lug'at bilan ishlashning metodik asoslari, ta'lim jarayonida uni samarali qo'llash yo'llari, shuningdek, o'quvchilarning leksik kompetensiyasini rivojlantirishdagi roli yoritilgan. Lug'at materiallari bilan ishlashda qo'llaniladigan interfaol usullar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanib dars jarayonini optimallashtirishga oid taklif va tavsiyalar beriladi.*

**Abstract:** *This article explores the methodological foundations of working with vocabulary, effective ways of applying it in the educational process, and its role in developing students' lexical competence. It also presents suggestions and recommendations for optimizing lessons through the use of interactive methods and modern information and communication technologies when working with vocabulary materials.*

**Kalit so'zlar:** *lug'at, leksik kompetensiya, metodika, interfaol usullar, ta'lim texnologiyalari.*

**Keywords:** *vocabulary, lexical competence, methodology, interactive methods, educational technologies.*

### Kirish

Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga quloq tutsin. (Sh.Mirziyoyev)

Har bir til o'ziga xos lug'aviy boylikka ega bo'lib, uning chuqur o'zlashtirilishi mazmunli va aniq fikr ifodasining asosi hisoblanadi. Til o'rganish jarayonida lug'at boyligini oshirish va so'zlarni to'g'ri hamda o'rinli qo'llay bilish ko'nikmasi asosiy til kompetensiyalaridan biri hisoblanadi. Lug'at bilan ishlash metodikasi esa bu jarayonni ilmiy asosda tashkil qilishni nazarda tutadi. Bugungi kunda ta'lim tizimida talaba yoki o'quvchining mustaqil fikrlashi, tanqidiy tahlil qila olishi, hamda muloqotga kirishish malakasini shakllantirishda lug'at bilan ishlashning o'rni beqiyosdir.

### **Asosiy qism**

Lug'at – bu til birliklarining, ya'ni so'zlarning izchil tarzda tuzilgan to'plamidir. Tilshunoslikda lug'at ikki asosiy turga bo'linadi: faol lug'at (foydalaniladigan so'zlar majmuasi) va nafaol lug'at (kam qo'llaniladigan yoki tarixiy so'zlar). Tarjima, izohli, orfografik, frazeologik va tematik lug'atlar esa amaliy til o'rganishda keng qo'llaniladi.

So'z tilning ma'no bildiradigan asosiy birligidir. So'z va so'z birikmasi aniq narsalarni, mavhum tushunchalarni, hissiyotni ifodalaydi. Tilda mavjud bo'lgan barcha so'z va iboralarning yig'indisi lug'at tarkibi yoki leksika deyiladi. Leksikologiya o'zbek tilining lug'at tarkibini o'rganadigan bo'limdir. Leksikologiya lug'at tarkibidagi so'zlarning nutqda ma'no ifodalash xususiyati, qo'llanish faolligi, boyib borishi, ba'zi so'zlarning eskirib, iste'moldan chiqib ketishi, ma'no ko'chish hodisasi kabilarni o'rganadi. Shu sababli leksikologiya lug'at ustida ishlash metodikasining lingvistik asosi hisoblanadi. [K. Qosimova, S. Matchonov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev 2009: 308-b].

Ona tili o'qitishning asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarga ona tilidagi so'zning ma'no va mohiyatini o'rgatishdan, so'zni his etishga yo'llashdan iborat. Bunda so'z ma'nolarini o'zlashtirish, uni nutqda to'g'ri va o'rinli qo'llash malakasining hosil qilinishi alohida o'rin tutadi. Buning uchun ona tili darslarida lug'at ustida ishlashga alohida e'tibor beriladi. Lug'at ustida ishlash ona tili darslaridagi oddiy mashg'ulot emas. Mazkur jarayonda:

- bolalarning aqliy va nutqiy jihatdan rivojlanishi ko'zda tutiladi;
  - dasturda belgilangan ilmiy-nazariy hamda metodik vazifalar bajariladi;
- o'quvchilarning aqliy, axloqiy-ma'naviy, badiiy-estetik tarbiyasi amalga oshiriladi;
- ularning ona tili zamiriga yashiringan sir-u sinoatlar, fayz-u go'zalliklarni ilg'ab olishiga imkon beriladi. [ B. To'xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova 2006: 88-b].

Lug'at bilan ishlashda quyidagi metodik yondashuvlardan samarali foydalaniladi:

Tematik lug'at tuzish: ma'lum bir mavzu doirasida yangi so'zlarni guruhlash orqali o'zlashtirishni osonlashtirish.

Sinonimik va antonimik tahlil: so'zlarning ma'no doiralarini kengaytiradi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida quyidagi amaliy usullar muvaffaqiyatli qo'llaniladi: elektron lug'atlardan foydalanish, multimediya vositalari yordamida so'zlarning talaffuzi, tarjimasi, qo'llanilishi haqidagi ma'lumotlarni olish.

1. "Hh undoshining talaffuzi va imlosi " mavzusi bilan tanishib, mavzu asosida 10 dona so'z yoziladi. Misol uchun , hol, holva, hayajon, hakim, muhtoj, haqiqat, ahvol, hayot, Hirot, hurmat kabi.

2. So'zlarning lug'aviy ma'nosini sharhlash, qaysi so'z turkumiga qarashli ekanligini aniqlash. Masalan: to'y, chiroyli, ishchi, bahor, so'zladi, bemor kabi so'zlar. To'y - bazm, tantanali marosim. Nima? so'rog'iga javob bo'ladi, ot so'z turkumiga kiradi.

3. O'quvchilar ikki guruhga bo'linib matn tuzishadi. Tuzgan matnlarini bir-biriga berishadi va o'sha matndagi so'zlarni sinonimini yoki boshqa variantini qo'llab matnni qayta yozishadi.

### **Xulosa**

So'z boyligining oshishi nafaqat yozma va og'zaki nutqni rivojlantiradi, balki til tafakkurini shakllantiradi. Lug'at bilan ishlash – bu faqat so'z yodlash emas, balki ular ustida izchil fikr yuritish, semantik bog'lanishlarni anglash va mantiqiy

tahlil qilish jarayonidir. Bu esa tilni o'zlashtirishda asosiy bosqichlardan biridir. Uning samarali amalga oshirilishi leksik bilimlarni boyitadi, tilga bo'lgan qiziqishni oshiradi va nutq madaniyatini rivojlantiradi. Bugungi kunda innovatsion yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar va metodik vositalar bu jarayonni yanada samarali qilish imkonini bermoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ona tili o'qitish metodikasi (Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik): K. Qosimova, S. Matchonov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev. — T.: «NOSHIR», - 2009. 352 b.
2. B. To'xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova O'zbek tili o'qitish metodikasi O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti Toshkent — 2006. 191 b.
3. Shahloxon Bobojonova Ona tili o'qitishda lug'at diktant va uning o'quvchilar yozma nutqini shakllantirishdagi o'rni
4. [www.president.uz](http://www.president.uz)